

## DEHQON: OBRAZ JOZIBASI

*Shoyimova Gulshod Shoyim qizi,*

*Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsatul-matahayyirin” asarida dehqon obrazi va uning o‘z zamonasidagi ahamiyati xususida so‘z boradi. Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Hoji Irqbadan orasidagi munozara asnosida dehqondagi uquv va fazilatlar teran ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *dehqon, Xamsatul-mutahayyirin, Hoji Irqbadan, Mir Shayxim, bog‘i Jahonoro*

Dehqon obraziga xos qat’iyat, o‘z kasbiga va e’tiqodiga sadoqat “Xamsatul-mutahayyirin” “Avvalgi maqolati” ning uchinchi hikoyatida teran badiiy talqin qilingan. Hikoyat mantiqidan ayon bo‘ladiki, ulug‘ kishilar o‘z hovli-joylaridan o‘zlariga ma’nan yaqin kishilar gul va daraxt ko‘chatlarini ekib, mo‘jaz bog‘ bunyod qilishlari uchun yer ajratib berganlar. Ajdodlarimiz hayotidan olinib, Alisher Navoiy asarlarida talqin qilingan bunday lavhalar insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun mo‘tadil muhit yaratish butun jahonda global muammoga aylangan bugungi kunda katta ilmiy va amaliy qimmat kasb etadi. “Xamsatul-mutahayyirin” dan o‘qiymiz: “Fanoiya bog‘chasin yasardakim, ul hazrat (Nuriddin Abdurahmon Jomiy-G.Sh.) hovllilarining ichinda yer inoyat qilib berib edilarkim, faqir o‘ziga muxtasar manzil yasab men”. [6;16] Hazrat Jomiy o‘z hovllilari ichidan Alisher Navoiyga yer tortiq qiladilar. Ulug‘ o‘zbek shoiri hovlining o‘ziga in’om qilingan qismiga gul va daraxtlar (rayohon va ashjor ) ekishni zamonasining epchil va ishbilarmon bog‘ boni darveshi Hoji Irqbadanga topshiradi. Nuriddin Abdurahmon Jomiy ijodiy ishdan bo‘shagan paytlarida dam olish, muborak zehnlarni charxlash maqsadida bog‘ bonning ishini kuzatib, unga ayrim nihollarni o‘tqazish uchun joy ko‘rsatadilar. Tabiatan biroz o‘jar Darvesh Hoji ulug‘ fors-tojik shoirining ko‘rsatmalariga rad javobini beradi. Nuriddin Abdurahmon Jomiy bilan bahsda o‘zining qilayotgan ishini to‘g‘ri ekanligini isbotlashga ishonch bilan harakat qiladi. Naqshbandiya tariqatining “...g‘azab yuritmak botinning zarfini ma’noli nuridin xoliy qilur” aqidasi o‘z ruhiga singdirgan mavlono Jomiy muloyimlik va o‘z kasbiga sodiq bog‘bon shaxsiga ehtirom bilan bahsni davom ettiradilar: “Bir kun yig‘ochqa alar (Nuriddin Abdurahmon Jomiy-G.Sh.) yer ta’yin qilibturlar: bog‘ bon inod yuzidin debturkim: “Munda ekmasmen”, Alar inbisot bila debturlarkim: “Nevchun ekmassen? Ul debturki: Rajadan tashqaridur...” [6;16-17] Dehqonning ulug‘ alloma bergan har bir savolga javobi o‘tkir aql hamda onglilik nuri bilan yoritilgan. Haq ekanligiga ishonch, iroda qat’iyligi, o‘z kasbining qadr-qimmatini qattiq turib himoya qilish kabi xususiyatlar dehqon obraziga

o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. Ba'zida nufuzli odam yoki rahbariy kuchlar tomonidan aytilgan bir og'iz so'z inson fikrining o'zgarishiga turtki bo'lishi mumkin. Bog'bon tabiatidagi qat'iyat, o'ziga ishonch, har qanday holatda ham vaziyatni o'zgartirmaslik, mustaqil fikrlilik Mavlono Jomiyning zavqlantirgan. Darvesh Hoji Irqbadan shaxsiyatida yana bir xususiyat bor. Bu-har bir ishning oqibatini oldindan o'ylab ko'rish, Mavlono Jomiyning "Nechun ekmassan?", degan savoliga bergan javobi ("Rajahdan tashqaridur") qanchalik to'g'ri va aniq bo'lmasin Bog'bon o'zining bu javobidan to'la qoniqmaydi. "Nechun ekmaslik" sababini asoslashni davom ettiradi: "Tongla cherik kelsa, Mir Shayxim bog'bonlikda voqif kishidur, ko'rib e'tiroz qilg'usidur". Alar (Nuriddin Abdurahmon Jomiy-G.Sh.) debdurlarkim: "Bog'cha Shayximning emas, Alisherningdur, ul e'tiroz qilmag'usidur" [6;16-17] Tariqat pirlarining har bir harakati hikmatdan xoli bo'lmay inson kamolotini parvarish etishga yo'naltirilgan. Dehqonning qat'iyati bir so'zligi Jomiyning zavqlantirib, u bilan munozarani davom ettirishga ilhomlantirgan. Jomiy va dehqon munozarasida e'tibor qaratish zarur bo'lgan yana bir muhim nuqta bor. Darvesh Hoji Mavlono Jomiy maslahatiga e'tiroz qilar ekan, "Mir Shayxim" nomini tilga oladi. Mir Shayxim XV asrning ikkinchi yarmi Hirot adabiy muhitining zabardast namoyondasi bo'lib, uning to'liq nomi Shayx Ahmad Suhayliydir. Mir Shayxim Suxayliy - sohibdevon shoir. U o'zbek va tojik tillarida devon tuzgan. "Layli va Majnun" dostonini yozgan. Alisher Navoiy Mir Shayxim she'riyati va shaxsiyati haqida "Majolis-un nafois", "Badoyeul-bidoya", "Layli va Majnun", "Favoyidul kibar" asarlarida qimmatli mulohazalar bildirgan. "Tatabbuyi yori aziz", "Tatabbuyi yori aziz, Suxayliy" sarlavhalari ostida Shayxim Suhayliy g'azallariga tatabbuyi bog'lagan. "Xamsatul-matahayyirin"dan keltirilgan bir jumladan iborat ixcham iqtibos bog'bon shaxsiyatiga xos quyidagi xususiyatlarni oydinlashtiradi:

1. Darvesh Hoji Irqbadan Hirot adabiy muhitidan hamda shu adabiy muhitning sarvari bo'lgan Jomiy va Navoiyga yaqin kishilarning hasbi holi, fe'l-atvori qiziqadigan sohalaridan mukammal xabardor bo'lgan.

2. Oddiy dehqon Xuroson davlati ijtimoiy-siyosiy muhiti haqida ham yetarli tasavvurga ega bo'lgan. U o'z mamlakatidagi ijtimoiy-siyosiy hayotga befarq bo'lganida edi, Sulton Husayn Bayqoro saltanatida muhrdor, vazir lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan Shayx Ahmad Suxayliyning shoh va uning qo'shini bilan harbiy amaliyotda ekanligi, ertasi kuni uning safardan qaytishini aniq ayta olmas edi.

"Tongla cherik" (Navoiy) safardan qaytishi bilan Shayxim Suhayliyning Mavlono Jomiy ziyoratiga oshiqishi bilan murshid-u komil maskanida amalga oshirilgan har bir ish, har bir yangilik bilan qiziqishi esa Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Shayx Ahmad Suxayliy orasidagi insoniy-ijodiy munosabatlarning qay darajada yuksak maqomda ekanligi haqida aniq tasavvur paydo qiladi.

Hikoyatning muhokama yuritayotgan mavzumizga aloqador eng o'tkir qirralaridan biri yana shuki, unda badiiy ijod sohasida "rafe' munosib va a'lo marotibg' a musharraf" (Navoiy) Shayx Ahmad Suxayliyning bog' bonlik kasbining sir-asroridan xabardorligi shu kasbning el nazariga tushgan namoyondasi Darvesh Hoji Irbadan tomonidan ta'kidlanganidir. "Fanoiya mo'jaz bog'ining ta'miri va bog' boni" Darvesh Hoji shoir Shayxim Suhayliyni bog' dorchilik ishlarida o'zidan ham mukammalroq mutaxassis sifatida e'tirof etadi.

"Xamsatul-mutahayyirin" avvalgi maqolatining "ul hazrat bila bu faqir orasida o'tgan ittifoqiy umr va g' arobatlik so'zlarkim, andin alarning bu faqirg' a iltifot va xususiyatlari zohir bo'lur" sarlavhasi ostidagi 5-hikoyatida zikr qilinishicha, Xuroson taxtini qo'lga kiritgan Sulton Husayn Boyqaro o'z g' alabasining yodgori sifatida "Jahonoro" nomli bog' barpo etishini buyurgan. Bog' tarhini tuzish, Hirotning mashhur bog' bonlaridan Sayid G'iyosga topshirilgan. Sulton Husayn Boyqaro barpo qilishga kirishgan "Jahonoro" bog'i Mavlono Jomiy yashayotgan xiyobon yo'lida bo'lgan. Kunlardan birida Hirotning Gozurgoh degan manzilidan o'z yashash joyi xiyobonga qarab ketayotgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy bir arava Sarv niholi ko'chatini yuklab ketayotgan Sayid G'iyosga ro'baro' kelib qoladilar. Shu yerda murshid-u komil Abdurahmon Jomiy bilan "Jahonoro" bog'ining ta'miri va bog'boni Sayid G'iyos orasida maroqli suhbat, savol-javob bo'lib o'tadi. "Xamsatul-mutahayyirin" dan o'qiymiz: "Ul hazrat ( Abdurahmon Jomiy-G.Sh.) salom berib, iltifot qilib, mutoyiba bila dedilar":

-Yana hech sarv yig'ochi qoldimu, oyo necha yig'ach bo'lg'ay?

-Ne, bo'yla sarv yig'ochi yuklabsen,

-Oyo necha yig'och bo'lg'ay?

-Ul (Sayid G'iyos-G.Sh.) dedikim:

-Sanabbiz, yuz to'rt adaddir:

-Faqir (Alisher Navoiy-G.Sh.) dedimkim:

-Munosib adaddur, nevchunkim, "qad" adadi bila munosibdur. [6;18-19]

Sayyid G'iyos oddiy dehqon bo'lsa-da, yuksak ma'rifat sohibi bo'lgan. U agar ziyrak va qobiliyatli bo'lmaganida edi, naqshbandiya tariqatining murshidi komili, ulug' shoir va alloma Nuriddin Abdurahmon Jomiy Sayyid G'iyos bilan shirin va hazilomuz, to'lqinli va jumboqli mubohasaga kirishmagan bo'lar edilar. Dehqon ulug' fors-tojik shoirining so'zida nozik va xushbichim daraxt, sarv bilan mumtoz she'riyatning markaziy qahramoni mashuqa o'rtasidagi dilkash tanosibga ishora qilinganligini, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy lutfining o'sha go'zal o'xshatish va o'xshatilmishga aloqadorligini teran anglagan. Xuddi shunday xulosani Alisher Navoiy lutfi zamiridagi abjad hisobiga ishora haqida ham aytish joiz. "Qad" so'zi arab yozuvida ikki harf "qof" va "dol" bilan yoziladi. Mazkur harflarning raqamdagi qimmatiga esa bir yuz to'rtga tengdir. Hirotning dovuqli bog' laridan "Jahonoro" ga

o'tqazish maqsadida saralab sotib olinib, o'zi aravaga ortib ketayotgan sarv nihollarining abjad hisobiga ko'ra raqamdagi ifodasi ham o'z zamonasining mohir dehqoni Sayid G'iyosga ma'lum bo'lgan. Alisher Navoiy ixcham hikoyatda ziyrak va zakiiy dehqonning hayotiy obrazini mahorat bilan yaratgan.

Befarqlik, g'ofilik, ma'naviy karaxtlik insonni ham, jamiyatni ham barbod qiladi. "Majolisun-nafois"ning uchinchi majlisi Nuriddin Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan maqola bilan boshlanadi. Shu fiqrada Nuriddin Abdurahmon Jomiyning maxsus xizmatkori Tayobodiy haqida yozadi: "Turfa budurkim, Xoja Muhammad Tayobodiy kim bir qarn ul hazratning (Abdurahmon Jomiy) maxsus mulozimi erdi, nazmlaridan bir bayt bilmas va bilsa ham nazmi va nasrlaridan bir nuqta fahm qilmas..." [4;13] Oddiy dehqon Sayid G'iyos va Darvesh Hoji Irbadan aqlli, axloqiy-ruhiy ogohligi bilan Alisher Navoiy muhabbatini qozongan. Shuning uchun ham ulug'mutafakkir hikoyatlarining qahramoniga aylangan. Dehqon olamning ko'rki, chunki olam ahlining ma'murligi va masrurligi uning mehnati bilan dunyoga ko'z ochadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ayniy S. Lug'ati nimtafsilii tojiki baroi zaboni adabii tojik. Kulliyot. Jildi 12. Dushanbe: Irfon, 1976.- Sah.373.
2. Bobur Z.M. Boburnoma.- Toshkent: Yulduzcha, 1990. - 367 b.
3. Farhangi zaboni tojiki.- Moskva, 1969. - 608 b.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild. - Toshkent: Fan, 1997. - 284 b.
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 14-jild. - Toshkent: Fan, 1998. - 304 b.
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 15-jild. - Toshkent: Fan, 1999. - 236 b.
7. Vohidov R. Suhayliy hayoti va ijodi. - Toshkent: Fan, 1976. 40 b.